

**MAHALLA-IJTIMOIIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH ORGANI**

Rahmatullayeva Barno *University of Management and Future Technologies
Universiteti 551-gurux talabasi*

Annotatsiya: *Mahalliy o'zini o'zi boshqarish* — hokimiyatning bir turi; fuqarolarning joylarda davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta'minlash, davlatning ayrim funksiyalarini amalga oshirish vositasi. Ko'pchilik mamlakatlarda mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari tashkil etilmay, u yerda faqat Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladi. Rossiyada aholi hokimiyatning vakolatli organlari (munitsipal yig'ilishlar, kengashlar, qo'mitalar va shahri k.), fuqarolarning tegishli boshqaruv organlari (mahalliy ma'muriyat), yig'inlari va boshqalar Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni amalga oshiradi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, odatda, davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishini aholi o'zi mustaqil belgilaydi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga qonun asosida ayrim davlat va-kolatlari berilishi mumkin, bu vakolatlar davlat nazorati ostida amalga oshiriladi. O'zbekistonda joylarda mahalliy davlat hokimiyati organlari ham, Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ham mavjud. Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarsa fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - fuqarolarning xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirishi, davlat va jamiyat ishlarida to'g'ridan -to'g'ri ishtirok etishi vositalaridan biri. Asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga bog'liq masalalarni hal qilishda mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (105-modda) va "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni (1999 yil 14 aprel)da huquqiy holati ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qonunga ko'ra quyidagilardir: shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarining , shuningdek, shahar,



shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig'ini; fuqarolar yig'inining kengashi; fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar; fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi; tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo'lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma'muriy komissiya. mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinishi kerak.

O'zbekistonda 10 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatmoqda. Fuqarolar yig'ini organlarini va ularning mansabdor shaxslarini saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlarini ta'minlagan holda, umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida" qonun qabul qilingan.

Fuqarolar yig'ini — fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishining yuqori organi bo'lib, aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul

Kirish. qilish huquqiga ega. Fuqarolar yig'inida 18 yoshga to'lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi. "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari ko'rsatilgan. Fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining fuqarolar yig'inlari oraliq davridagi joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislari va yig'inning mas'ul kotibidan iborat tarkibda fuqarolar yig'inining kengashi tuziladi. Faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi. Fuqarolar yig'ini kengashi o'z devoniga ega bo'lishi mumkin, uning xodimlari soni yig'in tomonidan belgilanadi. Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), mas'ul kotibi va kengash devoni



xodimlari fuqarolar yig'ining mablag'lari hisobiga ham, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga ham ta'minlanishi mumkin. Taftish komissiyasi F.o'.o'.b.o. moliyaxo'jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi. Ma'muriy komissiya ma'muriy huquqbuzarliklarga oid o'z vakolatlari doirasidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun tuziladi.

F.o'.o'.b.o.ning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida respublika oqsoqollar Kengashi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi mumkin. Faoliyatining moliyaviy asosi o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayir-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar orqali ta'minlanishi mumkin.

1-modda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi tushunchasi

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi — fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

2-modda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun hujjatlari

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

3-modda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi

Xulosa

Fuqarolar shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari



kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari (vakillar yig'ilishi) orqali amalga oshiradilar.

Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bevosita hamda o'zlarining saylab qo'yiladigan vakillari orqali o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqlarga egadir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi.

4-modda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: demokratizm; oshkoralik; ijtimoiy adolat; insonparvarlik;

mahalliy ahamiyatga molik masalalarni echishda mustaqillik;

jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam.

5-modda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish hududlari

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshiriladi. Shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalar fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining hududiy birliklaridir.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, shuningdek ularning chegaralarini o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining tegishli organlari fikrini hisobga olgan holda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi Qonuniga qarang.

Mahallani tuzish, qo'shib yuborish, bo'lish va tugatish, shuningdek uning chegaralarini belgilash va o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining tashabbusiga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

6-modda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadilar,



ularning ishlariga aralashishga yo‘l qo‘ymaydilar, fuqarolarga o‘zini o‘zi boshqarishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashadilar.

7-modda. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig‘inlari (bundan buyon matnda fuqarolar yig‘ini deb yuritiladi) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o‘z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo‘ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olinishi kerak.

(7-modda O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi,

8-modda. Fuqarolar yig‘ini

Fuqarolar yig‘ini aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiladigan qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

Fuqarolar yig‘inida shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida doimiy yashayotgan, voyaga etgan shaxslar qatnashadilar.

Fuqarolar yig‘ini organlari quyidagilardan iborat:

fuqarolar yig‘ini kengashi;

fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyalar;

fuqarolar yig‘ini taftish komissiyasi;

tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo‘lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma‘muriy komissiya (bundan buyon matnda ma‘muriy komissiya deb yuritiladi).

Fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyalar, fuqarolar yig‘ini taftish komissiyasi va ma‘muriy komissiyani saylash fuqarolarning



qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlari ta'minlangan holda yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga qarang.

Komissiya tarkibiga ko'rsatilgan shaxs, agar fuqarolar yig'inida (vakillar yig'ilishida) hozir bo'lganlarning yarmidan ko'prog'i uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, saylangan hisoblanadi.

(8-modda O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustda Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi,

9-modda. Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi nizom

Fuqarolar yig'ini o'zi tasdiqlagan nizom asosida faoliyat yuritadi. Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi nizomda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: fuqarolar yig'ining nomi, hududi, vakolatlari.

fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, shuningdek fuqarolar yig'ini organlarining boshqa mansabdor shaxslarini saylash tartibi;

fuqarolar yig'ini komissiyalarini tuzish tartibi;

fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) va rais maslahatchilarining vakolatlari;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi faoliyatining moliyaviy asosi;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini qayta tashkil etish va uning faoliyatini tugatish tartibi.

Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi nizomda qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi namunaviy nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(9-modda O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustda Oliy Majlis Axborotnomasi,

10-modda. Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari



Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini hamda shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini tegishli ravishda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hamda shahardagi mahalla fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlariga qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani o'zi ko'rib chiqish uchun olish va hal etish huquqiga ega.

Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini.

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislarini va a'zolarini saylaydi, yilning har choragida ularning hisobotlarini eshitadi;

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida

fuqarolar yig'inining taftish komissiyasini hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy komissiyani saylaydi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

belgilangan tartibda raisning (oqsoqolning) maslahatchilari va fuqarolar yig'ini Kengashi devonining miqdor tarkibini belgilaydi, raisning (oqsoqolning) taqdimnomasiga ko'ra fuqarolar yig'inining mas'ul kotibini tayinlaydi;

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasiga asosan, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) maslahatchilarining miqdoriy tarkibi hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzelar va dahalardan vakillikni hisobga olgan holda fuqarolar yig'ini tomonidan belgilanadi.

kengash, taftish komissiyasi va ma'muriy komissiya faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, yilning har choragida ularning hisobotlarini eshitadi;

fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining faoliyat dasturini va xarajatlar smetasini, hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlash, aholi punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;



qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, shuningdek o'z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalarining a'zoliciga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga tavsiya etadi;

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakllantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissin tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.